



“TEMUR TUZUKLARI” DAGI G’OYALAR ASOSIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTRISH

G’aniyev Farrux Taxirjanovich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar
profilaktikasi faoliyati kafedrasida katta o‘qituvchisi Toshkent, 100197,

O‘zbekiston, e-mail: fargan77@bk.ru

orcid.org/0009-0005-2423-050X

G’aniyeva Gulandon Ibragimovna

Namangan davlat universitetining Psixologiya (faoliyat turlari
bo‘yicha) yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Azimjonov Ro‘zimat Rustam o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar
profilaktikasi faoliyati ixtisosligi bo‘yicha tahsil olayotgan 3-o‘quv

kursi 316-guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14242423>

ARTICLE INFO

Received: 19 th November 2024

Accepted: 20th November 2024

Published: 29th November 2024

KEYWORDS

Temur tuzuklari,
huquqbuzarliklarning oldini
olish, huquqbuzarliklar
profilaktikasi, davlat
boshqaruvi, boshqaruv tartibi,
takomillashtirish, samarali
tashkil etish, ahamiyatli
jihatlari, jinoyatchilik,
taqqoslash.

ABSTRACT

Mazkur maqolada “Temur tuzuklari”dagi g’oyalar asosida huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish ahamiyati, huquqbuzarliklarning oldini olishda keng foydalanish borasida yo‘nalishlarni belgilash va shu asosda ushbu faoliyatni samarali tashkil etish usullari yoritilgan. Ushbu tadqiqotda “Temur tuzuklari” asarining muallifi bo‘lmish Sohibqiron Amir Temurning davlatni boshqarish va davlatdagi jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olishda qo‘llagan usullarini va uning natijalarini tahlil qilish hamda “Tuzuklar”ni o‘rganib, uning boshqaruv tartibi va huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirishdagi ahamiyatli jihatlari, hozirgi davrdagi islohotlar bilan uyg‘unligini taqqoslash va bu asarning hozirgi paytda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olishda qo‘llashni takomillashtirish chora-tadbirlari ko‘rib chiqiladi.

KIRISH

Bugungi murakkab va tahlikali davrda bu kitobni qayta-qayta mutolaa qilish, uning mag‘zini chaqish birinchi galda rahbar, yetakchi bo‘lishdek mas‘uliyatli vazifani o‘z zimmasiga olgan odamlar uchun, qolaversa, har qaysi ziyoli inson uchun bag‘oyat foydali desak, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Hozirgi kunda nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo va boshqa xorijiy mamlakatlarda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarda Amir Temur tuzuklarining o‘rni katta. Chunki, buyuk Amir Temur davrida huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun amalga oshirilgan chora-tadbirlar hali ham samarali tarzda foydalanilmoqda

O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Temur Tuzuklari” haqida bildirgan fikrlariga ko‘ra, bu asar, har bir so‘zida xalq va davlat manfaatlarini o‘ylab yashagan ulkan davlat arbobining o‘tmish tajribasi va hikmatlarini aks ettiradi. Amir Temur shaxsini idrok etish, tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash o‘zligimizni anglash demakdir.

Amir Temurni ulug'lash, tarix qa'riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizni, ishonchimizni mustahkamlash demakdir. Ishonchim komilki, yoshlarimiz bu kitobni mehr qo'yib, tushunib, chuqur anglab o'qisa, ularning qalbida milliy g'urur tuyg'usi yuksaladi, o'zining qanday buyuk zotlarning avlodi ekanini yanada chuqurroq his etib, hayotning har qanday sinov va qiyinchiliklarini yengishga qodir insonlar bo'lib voyaga yetadi¹.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Shaxsan men Sohibqiron bobomiz bizga meros qilib qoldirgan «Tuzuklar»ni o'qisam, xuddiki o'zimga qandaydir katta ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman. Har bir satri bir umr el-yurt, saltanat tashvishi bilan yashagan fidoyi inson, ulkan davlat arbobining keng miqyosdagi o'y-fikrlari, hayot va kurash tajribasi, mushohadasi, ba'zan esa dardli va iztirobli kechinmalari bilan sug'orilgan bu asarda qanday teran ma'no mujassam ekanini ma'rifatli, zukko kitobxon yaxshi angelaydi, albatta. Men o'z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan hayot hikmatlarining qanchalik to'g'ri ekaniga ko'p bor ishonch hosil qilganman. Masalan, «Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir», degan fikrlar bugungi kunda ham naqadar dolzarb ekani barchamizga ayon. Yoki u zotning: «Saltanat ishlarining to'qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur», degan ko'rsatmalarida hozirgi notinch zamon uchun, XXI asr siyosatdonlari uchun ham har jihatdan ibratli fikrlar borligini ta'kidlash joiz. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning ta'kidlashicha: «Tarixsiz kelajak yo'q».

So'nggi yillarda Amir Temur saltanatining o'rni va uning o'zbek davlatchiligi va madaniyatini rivojlantirishdagi roli yanada aniqroq tushunilib, tarixchi va sharqshunos olimlarimiz tomonidan bir qator muhim asarlar o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi.

¹ <http://www.temurtuzuklari.uz/uploads/890c89e3-8471-65ef-72c3-4bcd77b2b79d.jpg>

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Amir Temur asariga diqqat bilan nazar solinsa, dorug'a va shahar hokimlari – voliyarlari xalqqa jabr-zulm qilsalar, ularni ham jinoyatlariga mos holda jazoga tortish nazarda tutilgan. «Tuzuklar»da biror kishining aybi isbotlanganda, unga nisbatan faqat bitta jazo chorasini qo'llash, ya'ni agar jarima solinsa, darra bilan urmaslik, darra bilan urilsa, jarima solmaslik to'g'risida gapiriladi². Bu kabi jazo turlari bizga xulosa qilishga imkon beradiki, «Tuzuklar»da ko'proq boshqarish tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlar va ularga jazo tayinlash nazarda tutilgan. Zo'rlik bilan o'zga bir kishining mol-mulkini tortib olishda uning mulkini qaytarib olib berish bilan cheklangan.

«Samarqand shahrida qonunchilikka rioya qilinadi, biror kishi boshqa bir kishini xafa qilmaydi yoki Bekning – sen'orning ko'rsatmasisiz biror kishiga zo'rlik ishlatilmaydi». «Mamlakat kufr bilan turishi mumkin, lekin zulm bor yerda turolmaydi»³. Shu xulosalardan keyin avlodlarga nasihat qiladi: «Qabih xatti-harakat, yolg'on ishlardan xudo mulkini tozalagin». Bu tuzuklardan keyin Amir Temurning siyosiy-huquqiy qarashlari yanada oydinlashadi, ya'ni u erni ilohiy ne'mat, xudo mulki, insonga berilgan rizq ro'z, deb tushundi. Bu mulkni halol saqlash kerak, adolat ila rizq-ro'z terib, kun kechirish kerak. Tuzuklarda ma'muriy-huquqiy munosabatlar borasida ham juda ko'p qoidalar uchraydi. Hokimlarga har kimning tuhmat so'ziga uchib, aholiga jarima solish taqiqlanadi; unda birovning gunohi to'rt kishining guvohlik berishi bilan isbotlansa, jarima solish ma'qul ko'rinadi, fath etilgan mamlakatlar aholisidan mol-xiroj olishda ham adolat bilan ish tutilgan: – xirojni ekindan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab yig'sinlar; – kimki biror yerni obod etsa, undan birinchi yili xiroj olinmagan, ikkinchi yili dehqonning roziligiga qaralgan. Uchinchi yilda qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig'ilgan. Bu esa uning «Adolatga talpindim va jabr-zulmdan uzoq-

²Темур тузуклари. – Тошкент, 2022, 90-б. 2 Темур тузуклари. – Тошкент, 2022, 94-б.

³Темур тузуклари. – Тошкент, 1996, 93-б.

roqda bo'ldim», – degan so'zlari to'g'riligini tasdiqlaydi. Bunday tuzukni katta bilim va tajribaga ega bo'lgan salohiyatli huquqshunosgina tuza oladi. Amir Temurda bunday bilim va salohiyat yetarli bo'lgan. Agar barchaga bir xil soliq belgilansa, hosildan bir xilda xiroj olinsa, bu zo'ravonliqdan boshqa narsa emas edi. Temur tuzuklari orqali fath etilgan mamlakatlardagi boshqaruv tizimini va qonun-qoidalarini bayon etar ekan, o'z zamonida ham, kelajakda ham har ishda adolat tantana qilishini, qonunlar ustuvor bo'lishini izhor etadi. Chunki u qonun quchiga ega bo'lgan hujjat, O'zbekiston doirasidagi o'rta asr davlati va huquqining bizgacha to'la yetib kelgan yagona yirik manbaidir⁴. Tuzuklardagi fikr-mulohazalar bugungi kunda ham, ya'ni mustaqil O'zbekiston davlatini boshqarishda dasturilamal bo'la oladigan asardir⁵. Shunday qilib Amir Temur o'zining huquqiy qarashlarida quyidagi «huquqiy tamoyillarga asoslanib, jahonning uchdan bir qismiga teng keladigan ulkan saltanatni boshqardi: 1. Saltanatni dini, oyini to'ra va tuzuk asosida qurish, chunki din va qonun-qoidalarga bog'lanmagan davlatning shukuhi bo'lmaydi. 2. «Kuch-adolatda» – mamlakatni odillik bilan boshqarish lozim. 3. Qayerda qonun hukmron bo'lsa u yerda adolat bo'ladi, qonuniylik adolatga olib keladi. 4. Hukmdorning har bir amri, farmoni – to'ra va tuzuk, odat va qonun-qoidalarga tayangan bo'lishi kerak. 5. Qonunsizlik – kufr va zolimlikni tug'diradi; 6. Qonun oldida barcha tengdir. 7. SHariat, to'ra va tuzukni buzganlik uchun javobgarlik va jazo muqarrardir. 8. Kam ahamiyatli va birinchi marta jinoyat sodir etish, kechirim va adolat istaganlar uchun kechirimlidir. 9. Sodir etilgan bitta jinoyat uchun, faqat bitta jazo chorasini qo'llash va boshqalar.

Bundan tashqari, Temur davlatni boshqarishda ulamolar, elita va oddiy fuqa-

⁴Қаранг: З.Муқимов. Ўзбекистон ҳуқуқининг тарихий манбалари. – Самарқанд: СамДУ, 2008.

⁵Бобоев Ҳ.Б. Амир Темур ва темурийлар салтанати. – Тошкент: Камалак, 1996, 71-б.

rolarni hamda ularning huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratgan. Jamiyatda adolat o'rnatish, huquqbuzarliklarni oldini olishning muhim qismi sifatida qaralgan. Temur, shuningdek, jinoyatchilarni adolatli jazolash va jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni saqlashni ham tavsiya qilgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, o'z Vatanining tarixini bilish har bir o'sib kelayotgan yosh avlod uchun juda muhim. Amir Temur qonunlarga rioya qilish masalasini shu qadar jiddiy qo'yganki, qonunni buzganligi uchun yuqori lavozimdagi mansabdorlar, hatto o'zining eng yaqin qarindoshlari va farzandlarini ham jazolashga buyurgan. Qonunchilikka qat'iy rioya etilishi natijasida mamlakatda tinchlik va osoyishtalik barqarorligi ta'minlangan. Safarlardan qaytib kelganda, shaxsan o'zi bozorlarni tekshirar, agar qassob, baqqol, novvoy va hokazolar foyda topaman deb, narx -navoni oshirib yuborgan bo'lsalar, adolat rusumi buzilganini ko'rsa, gunohkorning jazosini bergan. Yolg'on gapni yomon ko'rgan. Amir Temur har bir mojaro va muammoli ishlarning to'g'ri va adolatli hal etilishini nazorat qilgan.

Poydevori mustahkam bo'lgan imorat ming yillar davomida tik tura oladi. Ildizi baquvvat, tarixiy xotirasi boqiy xalq hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2023.
2. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: “O'zbekiston”, 2016.
3. Mirziyoyev SH.M.. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan yeng oliy bahodir. –T., 2018. –B. 93.
4. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzar-liklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni // O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami. – 2014. – № 20. – 221-m.
5. Temur tuzuklari. . –T.: “Ijod press”, 2022.
6. Qodirov A. Siyosat falsafasi. Monografiya. – T., 2005. – 31b.
7. G'aniev F. T. TURKIYA RESPUBLIKASI: TABIYATI, MADANIYATI VA AN'ANALARI //Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 101-116.
8. G'aniev F. T. O 'ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MILLIY PREVENTIV MEXANIZMI //Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 84-90.
9. Ganiyev, F., & Ganiyeva, G. (2023). O 'G 'IRLIK HAQIDA TUSHUNCHA, O 'G 'IRLIKNING PSIXOLOGIK GENEZISI VA MEHANIZMLARI. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(4), 43-47.

INNOVATIVE
ACADEMY